

Излаш



[Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

[ILOVA](#)
[Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi](#)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.06.2022 yildagi PQ-269-son

Кучга кириш санаси

07.06.2022

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

OLIIY SPORT MAHORATI INSTITUTI FAOLIYATINI TASHKIL QILISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha yuqori malakali hamda zamonaviy bilim va texnologiyalarni o'zlashtirgan trener, hakam, seleksioner va boshqa mutaxassislarni tayyorlash maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi "Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5279-son [qaroriga](#) muvofiq:

1. Quyidagilar:

professional ta'lim tizimini tamomlagan bitiruvchilar uchun o'qish davomiyligi uch yil hisoblanadigan davlat oliy ta'lim muassasasi shaklidagi ixtisoslashtirilgan Oliy sport mahorati instituti (keyingi o'rinlarda — Institut) tashkil qilinganligi;

Institutga olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha milliy terma jamoa a'zosi bo'lgan yoshlarni ularning sport natijalariga qarab hamda seleksiya bo'yicha davlat granti asosida o'qishga qabul qilish belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Institutning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

ta'limning zamonaviy innovatsion texnologiyalarini joriy qilgan holda va ilg'or xorijiy tajribani inobatga olib jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, jumladan Xalqaro toifadagi O'zbekiston sport ustasi hamda O'zbekiston sport ustasi, shuningdek, O'zbekiston sport ustaligiga nomzod sportchilarni tayyorlash;

jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilishga qaratilgan yangi ta'lim dasturlarini hamda o'quv mashg'ulotlarining innovatsion shakllarini ishlab chiqish va joriy etish;

talabalarning kasbiy moyilligi, mahorati va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish;

talabalarning respublika va xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta'minlash, bu borada sport zaxirasi va milliy terma jamoalar tarkibini shakllantirishda ishtirok etish;

sport sohasiga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq qilish;

ta'lim va ilmiy faoliyatning ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratish;

istiqbolli bitiruvchi sportchilarni chet el sport va ilmiy-tadqiqot muassasalariga o'qishga yuborish orqali Institutning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish;

zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'quv jarayonlarini joriy qilish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq etish, jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimi hamda ochiq axborot-ta'lim muhitini rivojlantirishga ko'maklashish.

3. Belgilansinki:

Institutda o'quv jarayoni 2023/2024 o'quv yilidan boshlanadi;

Institutga talabalarni qabul qilish Olimpiya va Paralimpiya kollejlari bitiruvchilarining sport natijalari (qoida tariqasida a'lo va yaxshi baholarga ega bo'lgan iqtidorli o'quvchi-sportchilar orasidan) asosida amalga oshiriladi;

Institutga talabalarni qabul qilish shaffof va ochiq tanlov asosida o'tkaziladi;

Institutga talabalarni qabul qilish parametrlari O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilanadi;

Institutga talabalarni qabul qilish parametrlari davlat buyurtmasi sifatida har bir sport turining xususiyatidan (vazn toifasi, sportchilar soni, shu jumladan sportchi-ayollar soni, jamoaviy sport turlari bo'yicha tegishli sport turida ishtirok etadigan sportchilar soni va boshqalar) kelib chiqib, hududlarda iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) maxsus sport tizimini boshqarish platformasida shakllangan Olimpiya va Paralimpiya kollejlari bitiruvchilarining sport natijalari asosida shakllantiriladi;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Institut bitiruvchilariga tanlangan sport turi bo'yicha "trener" va "trener-seleksioner" mutaxassisliklari beriladi.

(3-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.11.2022-y., 07/22/414/0996-son)

Institut bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim to'g'risidagi hujjat sifatida tan olinadigan davlat namunasidagi diplom beriladi;

Institut talabalari sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejalariga muvofiq o'tkaziladigan respublika musobaqalarida to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etadi;

Institut talabalarini yashash uchun jihozlar, sutkalik oziq-ovqat normasi bilan ta'minlashda Olimpiya va Paralimpiya kollejlarning normativlari tatbiq etiladi;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Institut Yoshlar siyosati va sport vazirligi tizimiga kiradi;

(3-bandning o'n birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-92-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Natijador sportchilarni tayyorlaganligi uchun Institut rahbar, trener va tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirish sport turlarini rivojlantirish respublika markazlarining rahbar, trener va tibbiyot xodimlari mehnatini moddiy rag'batlantirish tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-92-sonli Farmoniga asosan o'n ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son)

4. Quyidagilar Institut faoliyatini moliyalashtirishning manbalari etib belgilansin:

Davlat budjeti mablag'lari;

xo'jalik faoliyati bo'yicha va shartnoma asosida ko'rsatilgan xizmatlardan tushumlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

5. Institutga quyidagi huquqlar berilsin:

ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quv rejalarini va o'quv dasturlarini mustaqil ishlab chiqish va tasdiqlash;

o'quv rejalaridagi nazariy ta'lim ulushini qisqartirish hisobiga amaliy mashg'ulotlar hajmini oshirish;

professor-o'qituvchilar o'quv yuklamasini mustaqil me'yorlashtirish, shuningdek, trenerlar va pedagog xodimlar tomonidan o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishini, "ustoz-shogird" an'analari joriy qilinishini rag'batlantirib borish.

6. Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

7. Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A. Ikramov) 2023/2024 o'quv yiliga qadar:

(7-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-92-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son)

Institut ustavini belgilangan tartibda tasdiqlasin va uni davlat ro'yxatidan o'tkazish choralari ko'rsin;

Institut tuzilmasini oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan normativlarga muvofiq tasdiqlasin;

Institutning bo'limlari, fakultetlari va kafedralari shakllantirilishini, uning ta'lim tizimi va jismoniy tarbiya va sport sohasida zamonaviy bilimlarga, shuningdek, amaliy ish tajribasiga ega yuqori malakali mutaxassislar, jumladan xorijiy mutaxassislar bilan to'ldirilishini, o'qituvchilar, trenerlar va mutaxassislarning professional ko'nikmalari va bilim darajalarini uzluksiz oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlasin;

zarur o'quv rejalarini va o'quv dasturlari, o'quv-metodik materiallar va qo'llanmalar ishlab chiqilishini ta'minlasin;

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda Olimpiya va Paralimpiya kollejlari tayyorlanadigan kasblar (mutaxassisliklar)ning malaka talabi va o'quv rejalarini professional standartlar asosida takomillashtirsin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

8. Yoshlar siyosati va sport vazirligi O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi va O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi bilan birgalikda:

(8-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-92-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son)

Institut talabalarining sport tayyorgarlik mashg'ulotlarini yuqori darajada tashkil etish maqsadida sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalar bosh trenerlarini Institutning o'quv-mashq jarayonlariga jalb qilish;

[Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

[ILOVA Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi](#)

Institut talabalarini sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendari rejalariga muvofiq yil davomida uzluksiz o'quv-mashg'ulot yig'inlariga jalb etish hamda xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta'minlash choralarini ko'rsin.

9. Institut tuzilmasida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan:

Axborot-resurs markazi;

Tibbiyot bo'limi tashkil qilinsin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Yoshlar siyosati va sport vazirligi:

(9-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-92-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son)

a) 2023/2024 o'quv yiliga qadar Axborot-resurs markazining mahalliy hamda xorijiy o'quv, ilmiy va badiiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalari bilan to'ldirilishini ta'minlasin;

b) Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda:

2023/2024 o'quv yiliga qadar Institutning tibbiyot bo'limini malakali mutaxassislar bilan to'ldirsin;

Institutning musobaqalarga tayyorgarlik va musobaqalar davrida katta jismoniy yuklama ostida harakat qiladigan sportchi-talabalarini tezkorlik bilan tiklab olish uchun farmakologik ko'mak berish maqsadida 2023-yildan boshlab har yili dekabr oyiga qadar zarur dori vositalari bilan ta'minlash bo'yicha Moliya vazirligiga asoslantirilgan hisob-kitoblarni taqdim etsin.

10. Sportni rivojlantirish vazirligi hamda Samarqand viloyati hokimligining Institutni Samarqand shahri, Ibn Sino ko'chasi, 17a-uy manzili bo'yicha joylashtirish haqidagi taklifiga rozilik berilsin.

11. Moliya vazirligi (T. Ishmetov) Institut faoliyatini saqlash bilan bog'liq zarur mablag'larning 2023-yildan boshlab Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutilishini ta'minlasin.

12. Sportni rivojlantirish vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

13. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib yoshlar siyosati va sport vaziri A.I. Ikramov, yoshlar siyosati va sport vazirining o'rinbosari D.Sh. Raximova va Samarqand viloyati hokimi E.O. Turdimov belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi K.K. Kuranbayev zimmasiga yuklansin.

(13-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-92-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 6-iyun,
PQ-269-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 6-iyundagi
PQ-269-son qaroriga
ILOVA

Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Moliyalashtirish manbalari	Bajarish uchun mas'ullar
1.	Oliy sport mahorati instituti (keyingi o'rinlarda — Institut)da tayyorlanadigan kasblar va lavozimlar bo'yicha ishlab chiqilgan kasb standartlari asosida malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.	<p>1. Malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda ishchi guruh shakllantirish.</p> <p>2. Mavjud kasb standartlarini qayta o'rganib chiqish hamda zaruratga ko'ra qayta tasdiqlash.</p> <p>3. Tasdiqlangan kasb standartlari asosida malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini tasdiqlash.</p>	<p>2022-yil noyabr</p> <p>2022-yil dekabr</p> <p>2023-yil avgust</p>	-	<p>Sportni rivojlantirish vazirligi,</p> <p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,</p> <p>Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi</p>
2.	Institutda mahorat darslari va maxsus mashg'ulotlarni o'tkazish uchun yetakchi xorijiy ta'lim va ilmiy muassasalarning malakali olimlari hamda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini taklif etish.	<p>1. Tajriba almashish maqsadida xorijiy yetakchi turdosh oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va tajribali mutaxassislarining mahorat darslarini tashkil etish.</p> <p>2. Konferensiya va ilmiy seminarlarga hamda ilmiy ishlar muhokamalariga malakali olimlar hamda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini taklif etish.</p>	2023/2024 o'quv yilidan boshlab	Sportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	<p>Yoshlar siyosati va sport vazirligi,</p> <p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,</p> <p>Tashqi ishlar vazirligi</p>
3.	Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro tajriba almashinuv amaliyotini kengaytirish.	Professor-o'qituvchilar va trenerlarni xorijiy mamlakatlardagi yetakchi oliy ta'lim muassasalariga stajirovkaga yuborish.	2023/2024 o'quv yilidan boshlab	Sportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	<p>Yoshlar siyosati va sport vazirligi,</p> <p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,</p> <p>Tashqi ishlar vazirligi</p>

Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida

ILOVA
Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Moliyalashtirish manbalari	Bajarish uchun mas'ullar
4.	Institutning Axborot-resurs markazi faoliyatini tashkil etish.	<p>1. Axborot-resurs markazini malakali kadrlar bilan to'ldirish.</p> <p>2. Axborot-resurs markazini o'quv-metodik adabiyotlar, axborot materiallari (shu jumladan ularning elektron variantlari), maxsus davriy nashrlar bilan ta'minlash.</p> <p>3. Axborot-resurs markazini mebel, inventar, axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlash.</p> <p>4. Talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun masofaviy elektron ta'lim platformasini tashkil etish hamda elektron axborot resurs manbalari (taqdimotlar, tarqatma materiallar, ma'ruza matnlari, video va audio darslar) bilan boyitib borish.</p>	2023-yil avgust	Sportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
5.	Institutni sport turlari bo'yicha zamonaviy texnik vositalar va maxsus laboratoriya uskunalari (anjomlari) bilan jihozlash.	<p>1. Institutda tashkil etiladigan laboratoriyalar hamda ular uchun zarur bo'lgan jihozlar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Laboratoriyalarni zarur jihozlar bilan ta'minlash.</p>	2023-yil mart 2023-yil avgust	Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Innovatsion rivojlanish agentligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi
6.	Institutning ta'lim va boshqaruv jarayonida IT-texnologiya infratuzilmasini takomillashtirish.	<p>1. Institut binolarini optik tolali simlar bilan jihozlash va yagona tarmoq boshqaruvini yaratish.</p> <p>2. Institut binolari, shu jumladan Axborot-resurs markazida Wi-Fi hududlar tashkil etish, Internet tarmog'idan keng foydalanish imkonini yaratish.</p>	2023-yil iyul	Ijrochilar mablag'lari	Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi
7.	Institutning shtatlar jadvali va xarajatlari smetasini ro'yxatdan o'tkazish.	Institutning shtatlar jadvali va xarajatlar smetasi loyihalarini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2023-yil avgust	-	Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi

(ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-92-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son)



Oliy sport mahorati instituti
faoliyatini tashkil qilish chora-
tadbirlari to'g'risida

ILOVA
Oliy sport mahorati instituti
faoliyatini tashkil etish bo'yicha
qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi